

**SOG'LIQNI SAQLASH: IQTISODIY BARQARORLIKNING MUHIM OMILI****Orziqulova Malikaxon***Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti Andijon fakulteti AI-50/24 guruh talabasi*

**Annotasiya:** *Mazkur maqolada sog'liqni saqlash tizimining iqtisodiy barqarorlikka ta'siri tahlil qilingan. Inson kapitali va iqtisodiyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yoritish bilan birga, sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirishning iqtisodiy samaradorlikka olib keluvchi omillari ko'rib chiqilgan. Muallif tibbiy xizmatlarga investitsiyalar, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va sog'lom turmush tarzining ahamiyatini qayd etadi. COVID-19 pandemiyasining saboqlari va dunyo tajribasi asosida sog'liqni saqlash tizimini kuchaytirishning muhim jihatlari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, O'zbekistonda sog'liqni saqlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri haqida fikr yuritiladi. Maqola sog'lom xalqning kuchli iqtisodiyot poydevori ekanligini isbotlovchi ilmiy dalillarga asoslanadi.*

**Kalit so'zlar:** *Sog'liqni saqlash, iqtisodiy barqarorlik, investitsiyalar, innovatsiyalar, pandemiya, iqtisodiy o'sish, inson kapitali, sog'lom turmush tarzi, iqtisodiyot va sog'liq, raqamlı tibbiyot, O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimi.*

Jamiyat rivojlanishining asosiy omillaridan biri bu inson kapitali, ya'ni bilimli, mehnatga qobiliyatli va sog'lom insonlar hisoblanadi. Insonlarning sog'lig'i nafaqat ularning shaxsiy farovonligi, balki iqtisodiy barqarorlik va o'sishning muhim tarkibiy qismi hamdir. Bugungi kunda sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish iqtisodiy barqarorlikka erishishning asosiy yo'llaridan biri sifatida qaralmoqda.

**Sog'liqni saqlashning iqtisodiy ahamiyati**

Sog'liqni saqlash tizimi bilan iqtisodiyot o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Tizimning rivojlanishi ba'zi bir iqtisodiy foydalarni ta'minlaydi. Bulariga misol qilib quyidagilarni olishimiz mumkin:

1. Ishchi kuchi sifatining oshishi. Sog'lom xodimlar samaradorlikni oshiradi. Kasallik tufayli ishlagagan kunlarning qisqarishi iqtisodiy samaradorlikni yanada kuchaytiradi. Shu bilan birga, sog'lom odamlar murakkab vazifalarni ham yuqori sifatda bajara oladi.

2. Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash. Pandemiyalar yoki boshqa sog'liq bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarda kuchli sog'liqni saqlash tizimiga ega davlatlar iqtisodiy inqirozlardan kam zarar bilan chiqadi.

3. Aholi hayot sifati. Sog'liqni saqlash tizimining yaxshilanishi aholining hayot sifatini oshirib, ularni iqtisodiy faoliylikka undaydi. Masalan, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish orqali ishlash qobiliyati oshadi.

Sog'lom insonlar ko'proq ishlay olishadi, bu esa iqtisodiyotning yalpi mahsuloti hajmini oshiradi. Tibbiyot texnologiyalariga investitsiyalar yangi tibbiy asbob-uskunalar va dori-darmonlarni yaratishga olib keladi. Bu esa iqtisodiyotning

innovatsion sektorlarini rag'batlantiradi. Sog'liqni saqlash bilan bog'liq bo'lgan farmatsevtika, biotexnologiya va tibbiyot xizmatlari sohasida yangi ish o'rirlari yaratiladi.

Sog'liqni saqlash tizimiga investitsiya kiritish uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning kalitidir. Misol uchun: Dunyo tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, sog'liqni saqlash tizimiga investitsiya kiritish iqtisodiyotga bevosita ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Jalon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) ma'lumotlariga ko'ra, sog'liqni saqlashga qilingan har bir dollarli investitsiya 4-7 barobar iqtisodiy foyda keltiradi. Sog'lom insonlar nafaqat o'zlarining daromadlarini oshiradi, balki ichki bozorning talabini ham kuchaytiradi. Bundan tashqari, sog'liqni saqlash tizimi, o'zi alohida bir iqtisodiy tarmoq sifatida, yangi ish o'rirlarini yaratadi va innovatsion texnologiyalarni joriy qilishga imkon beradi. Shu bilan birga sog'liqni saqlash tizimiga investitsiya kiritish uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning kalitidir. Tibbiyot texnologiyalariga investitsiyalar kiritish yangi tibbiy asbob-uskunalar va dori-darmonlarni yaratishga olib keladi. Bu esa iqtisodiyotning innovatsion sektorlarini rag'batlantiradi. Sog'liqni saqlashga investitsiya kiritish nafaqat sog'liqni yaxshilash, balki yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratish uchun ham muhimdir:

- Sog'liqni saqlash infratuzilmasini rivojlantirish yangi ish o'rirlari yaratadi.
- Innovatsion texnologiyalarni joriy etish tibbiy xizmatlarning samaradorligini oshiradi va iqtisodiy foyda keltiradi.
- Aholining sog'lom turmush tarziga o'tishi esa mehnat unumdarligini oshirib, ishlab chiqarish sohasida yuqori natijalarni ta'minlaydi.

#### Global tajribadan saboqlar

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, sog'liqni saqlash tizimini e'tiborsiz qoldirish iqtisodiy turg'unlikka olib kelishi mumkin. Masalan, Afrika davlatlarida yuqori darajadagi kasalliklar ishlab chiqarish quvvatini pasaytirgan va ko'plab mintaqaviy inqirozlarga sabab bo'lgan. Shu bilan birga, rivojlangan davlatlar (masalan, Germaniya va Shvetsiya) sog'liqni saqlash tizimiga katta e'tibor qaratib, barqaror iqtisodiy o'sishni saqlab qolishga muvaffaq bo'lganlar.

#### Pandemiya saboqlari

COVID-19 pandemiyasi sog'liqni saqlash tizimining iqtisodiyot uchun naqadar muhim ekanligini yana bir bor ko'rsatdi. Pandemiya davrida ko'plab davlatlarda iqtisodiy faoliyat pasayib, milliardlab dollar yo'qotishlar kuzatildi. Jalon bankining hisob-kitoblariga ko'ra, pandemiya davrida dunyo iqtisodiyoti 10 trillion dollargacha zarar ko'rdi. Buning asosiy sabablari: sog'liqni saqlash tizimlarining pandemiyaga qarshi yetarli darajada tayyor emasligi va karantin choralar tufayli ishlab chiqarishning to'xtab qolishi bo'ldi. Shu bilan birga, kuchli sog'liqni saqlash tizimiga ega bo'lgan davlatlar pandemiyaga qarshi kurashda samarali bo'lib, iqtisodiy inqirozdan tezroq chiqib ketdi.

O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimi va iqtisodiy rivojlanish

# JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH

## VOLUME-7 ISSUE-11 (30- November)

O'zbekistonda sog'liqni saqlash sohasida olib borilayotgan islohotlar ahamiyatlidir. Davlat tomonidan sog'liqni saqlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan quyidagi choralar iqtisodiy barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda:

- Tibbiy xizmatlarning modernizatsiyasi. Respublika bo'ylab yangi klinikalar ochilib, qishloq joylarida tibbiy xizmatlar kengaymoqda. Bu aholining iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda.

- Profilaktik dasturlar. Davlat tomonidan yuqumli va yuqumsiz kasallikkarning oldini olish dasturlari amalga oshirilmoqda, bu esa sog'liqni saqlash xarajatlarini kamaytiradi.

- Xalqaro hamkorlik. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti bilan hamkorlikda qator loyihalar amalga oshirilmoqda, bu investitsiyalarni jalg qilish va innovatsiyalarni kiritishga yordam bermoqda.

Sog'liqni saqlash tizimiga investitsiya kiritishning global saboqlarini o'rganish O'zbekiston uchun muhimdir:

1. Mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish. Yuqumli kasallikkarga qarshi kurashda qo'shni davlatlar bilan hamkorlik sog'liqni saqlash tizimining samaradorligini oshiradi.

2. Raqamli tibbiyotni rivojlantirish. Telemeditsina va raqamli xizmatlar iqtisodiy samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

Xulosa:

Sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish faqat insonlarning farovonligini ta'minlash emas, balki iqtisodiy barqarorlik va uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni kafolatlash demakdir. Shu sababli, sog'liqni saqlash sohasiga investitsiyalarni oshirish va innovatsion yondashuvlarni joriy qilish har bir davlat uchun muhim ahamiyatga ega. Chunki sog'lom xalq – kuchli iqtisodiyotning poydevoridir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1."The Economics of Health and Health Care" Sherman Folland, Allen C. Goodman, Miron Stano (so'nggi nashri 2020-yilda chiqdi)

2.Jahon banki tomonidan pandemiyaning iqtisodiyotga ta'siri bo'yicha tahliliy ma'lumotlar.

3.O'zbekistonning davlat dasturlari va tibbiyot sohasidagi islohotlar bo'yicha rasmiy hujjatlar.